Bundan tashqari, yoshlar sanoat zonalarida sanoat ipotekasi asosida bino sotib olayotgan tadbirkorlarga uskunalar xaridi uchun 500 ming AQSH dollarigacha kredit ajratilishi belgilangan. Natijada ishlab chiqarish maydoniga ega bo'lgan yosh tadbirkorlar zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanib, o'z faoliyatlarini yanada kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xizmat ko'rsatish sohasida ham yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalarni olish hamda boshqa davlat xizmatlaridan foydalanish tartiblari sezilarli darajada soddalashtirildi. Tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi Biznes-ombudsman instituti joriy etildi. Ushbu islohotlar mamlakatimizda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes-inkubatorlar faoliyatini tashkil etish va ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etish masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda biznes-inkubatorlarni rivojlantirish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashdagi o'rni alohida e'tirof etilgan.

Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlardan Mark P. Rice biznes-inkubatorlarni yangi tashkil etilgan korxonalarining bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatlarini oshiruvchi muhim innovatsion infratuzilma elementi sifatida baholaydi. Olimning fikriga ko'ra, biznes-inkubatorlar tadbirkorlarga nafaqat ofis maydonlari, balki maslahat, moliyaviy va marketing xizmatlarini ham taqdim etib, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

David A. Lewis tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda biznes-inkubatorlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri chuqur tahlil qilingan bo'lib, unda inkubatorlar yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion mahsulotlarni



tijoratlashtirish va tadbirkorlik muhitini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shuningdek, National Business Incubation Association tomonidan tayyorlangan ilmiy va uslubiy materiallarda biznes-inkubatorlarning asosiy vazifalari sifatida startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish, investorlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash hamda tadbirkorlik ekotizimini takomillashtirish masalalari alohida qayd etilgan.

Rossiyalik olimlar Aleksey Tatarkin va Sergey Glazyev innovatsion infratuzilma tizimida biznes-inkubatorlarning institutsional ahamiyatini tadqiq etgan. Ularning ilmiy ishlarida biznes-inkubatorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarurligi asoslab berilgan.

Mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda biznes-inkubatorlarning o'рни muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, startap loyihalarni moliyalashtirish hamda innovatsion infratuzilmani takomillashtirish masalalari keng yoritilgan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, biznes-inkubatorlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va innovatsion rivojlanishga ta'siri yetarli darajada o'rganilgan. Shu bilan birga, ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish hamda milliy sharoitlarga mos institutsional modelini shakllantirish masalalari ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida biznes-inkubatorlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari bilan integratsiyasini kuchaytirish hamda innovatsion ekotizimdagi o'rnini yanada mustahkamlash bo'yicha ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish davr talabi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, vazirliklar hamda idoralarning rasmiy statistik ma'lumotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning tahliliy materiallaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar tizimli ravishda tahlil qilinib, olingan natijalar asosida biznes-inkubatorlarning tashkiliy-huquqiy faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biznes-inkubatorlarning tashkiliy-huquqiy tuzilmasi ularning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Mazkur tuzilma biznes-inkubator faoliyatining samaradorligini ta'minlash, rezident korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarkibiy bo'linmalardan iborat bo'ladi.

Birinchi tarkibiy bo'linma ma'muriyat bo'limi hisoblanib, u biznes-inkubatorning umumiy faoliyatini boshqarish, tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish hamda texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etish vazifalarini amalga oshiradi.

Ikkinchi bo'linma konsultatsiya va xizmat ko'rsatish bo'limi bo'lib, u biznes-inkubator faoliyatida muhim o'rin tutadi. Mazkur bo'lim yangi tashkil etilayotgan korxonalarini qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlarida ko'maklashadi, zarur hujjatlarni tayyorlashda amaliy yordam beradi, ofis binolari va jihozlar bilan ta'minlaydi, buxgalteriya hisobini yuritish, marketing va reklama faoliyatini tashkil etish, mahsulot hamda xizmatlarni bozorga chiqarish bo'yicha maslahatlar beradi. Shuningdek, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun potensial investorlarni jalb etish va biznes hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Uchinchi tarkibiy bo'linma nazorat va monitoring bo'limi hisoblanadi. Ushbu bo'lim biznes-inkubator tarkibida faoliyat yuritayotgan subyektlar, inkubator binolaridan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektlari, biznes-inkubator rezidenti maqomiga ega bo'lmagan, biroq uning dasturlarida ishtirok etayotgan kichik biznes vakillari hamda inkubatsiya jarayonini muvaffaqiyatli yakunlagan korxonalar bilan o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtiradi. Shu bilan birga, mazkur subyektlar bilan rasmiy va norasmiy aloqalarni rivojlantirish, ularning faoliyat natijalarini monitoring qilish va keyingi rivojlanishiga ko'maklashish bo'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, biznes-inkubatorlar faoliyat yo'nalishi, tashkiliy xususiyatlari va ko'rsatiladigan xizmatlar turiga qarab turli mezonlar asosida tasniflanadi. Ularning asosiy maqsadi startap loyihalar va kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy, moliyaviy, axborot va konsalting resurslarini taqdim etishdan iboratdir. Shu bois biznes-inkubatorlarning tasniflanishini o'rganish ularning faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).



Tasniflash mezonlari	Tasniflash turlari
Biznes-inkubatorning shakli	Tijorat; Notijorat
Biznes-inkubator turi	Ochiq; Yopiq
Moliyalashtirish manbalari bo'yicha	Xususiy; Davlat; Aralash
Mustaqillik darajasi bo'yicha	Mustaqil muassasa; Texnopark tarkibidagi biznes-inkubator
Ixtisoslashuv darajasi bo'yicha	Ixtisoslashgan; Ixtisoslashmagan; Aralash
Joylashuviga ko'ra	Qishloq hududidagi; Shahar atrofi hududidagi; Shahar hududidagi; Shaharlararo
Taqdim etiladigan infratuzilmaga ko'ra	Faqat ofis binolari bilan ta'minlangan; Faqat ishlab chiqarish binolari bilan ta'minlangan; Ofis, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi bilan ta'minlangan
Tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra	Davlat korxonasi; Xususiy korxonasi; Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ); Aksiyadorlik jamiyati (AJ); Davlat-xususiy sheriklik asosidagi tashkilotlar
Xodimlar tarkibi bo'yicha	Shtatdagi xodimlar; Individual faoliyat yurituvchi shaxslar (IFSh); Pudratchilar; Rezidentlar; Norezidentlar; Ekspertlar
Xizmat ko'rsatish yo'nalishlari bo'yicha	Innovatsion biznes-inkubatorlar; Klassik biznes-inkubatorlar; Sanoat (ishlab chiqarish) biznes-inkubatorlari; Ijtimoiy biznes-inkubatorlar; Ilmiy-texnologik parklar va inkubatorlar; Virtual biznes-inkubatorlar; Startup biznes-inkubatorlar; Eksportga yo'naltirilgan biznes-inkubatorlar; Hududiy ishlab chiqarish komplekslari va kooperatsiya tarmoqlari

Yuqorida keltirilgan jadvalda biznes-inkubatorlarning tasniflanish mezonlari va ularning turlari yoritilgan bo'lib, har bir tur o'zining tashkiliy-huquqiy xususiyatlaridan kelib chiqib, tegishli xizmatlar va resurslarni taqdim etadi. Shu bilan birga, biznes-inkubatorlar moliyalashtirish manbalari, ko'rsatiladigan xizmatlar turi, mavjud resurslar, geografik joylashuvi hamda rivojlanish bosqichlariga qarab o'z faoliyat dasturlarini moslashtiradi. Tasniflashning asosiy mezonlari va turlari o'zaro uzviy bog'liqlikda biznes-inkubatorlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, biznes-inkubatorlarda ishtirok etishning asosiy natijasi uch yil davomida mustaqil ravishda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan va bozorda raqobatbardosh o'rin egallaydigan korxonalarini shakllantirishdan iboratdir.

Bundan tashqari, biznes-inkubatorlar faoliyat yuritish jarayonida yuzaga keladigan turli huquqiy masalalarni hal etish bo'yicha maslahat va amaliy xizmatlar ko'rsatadi. Jumladan, korxonasi uchun eng maqbul tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash, uni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda zarur normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, korxonaning samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga ko'maklashish, innovatsion mahsulotlarning texnik hujjatlari va pasportlarini ishlab chiqishda amaliy yordam ko'rsatish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, biznes-inkubatorlar yosh tadbirkorlarga turli vositalar, resurslar va malakali ekspertlar ko'magida o'z biznes g'oyalarini amaliy loyihalarga aylantirishda yaqindan yordam beradi. Tadqiqot davomida biznes-inkubatorlarning tasniflanish xususiyatlari o'rganilib, ularning turli mezonlar asosida shakllanishi va faoliyat yuritishi aniqlandi. Mazkur tasniflash, asosan, inkubatorlarning maqsadlari, faoliyat yo'nalishlari hamda tashkiliy-huquqiy shakllaridan kelib chiqib, ko'rsatiladigan xizmatlar tarkibi va ko'lamiga asoslanadi.

Shuningdek, biznes-inkubatorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar majmuasiga imtiyozli shartlarda zamonaviy aloqa vositalari, ofis texnikalari va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlangan ofis hamda ishlab chiqarish binolarini ijaraga berish, shuningdek, axborot, o'quv, konsalting, yuridik va boshqa professional xizmatlarni ko'rsatish kiradi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, biznes-inkubatorlar o'z faoliyatini samarali tashkil etish uchun ta'sischi va homiylarning moddiy resurslari hamda tashkiliy ko'magidan foydalanadi. Natijada ular faoliyat yuritayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

8 Muallif Sh.E.Narzullayev tomonidan ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan.



Biznes-inkubatorlar o'zining tashkiliy-huquqiy shakli va faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, mijozlarga keng ko'lamli xizmatlarni taqdim etadi. Xususan, binolar va ofis jihozlari bilan ta'minlash, buxgalteriya, konsalting, yuridik, auditorlik va marketing xizmatlarini ko'rsatish, xavfsiz ish maydonlarini yaratish, barqaror ijara shartlarini taklif etish, biznesni boshlash va rivojlantirish, kreditlash, o'qitish, maslahat berish, litsenziyalash, sug'urtalash, davlat ro'yxatidan o'tkazish, patent olish hamda boshqa professional xizmatlarni tashkil etish shular jumlasidandir (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining hududlarida tashkil etilgan innovatsion infratuzilma markazlari to'g'risida ma'lumot⁹

№	Viloyatlar	Kovorking markazi	Innovatsiya markazi	Inkubatsiya markazi	Akseleratsiya markazi	Texnopark
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1	6	3	2	1
2	Andijon viloyati	15	2	2	2	1
3	Buxoro viloyati	5	1	1	1	0
4	Jizzax viloyati	13	1	3	2	0
5	Qashqadaryo viloyati	3	2	2	2	0
6	Navoiy viloyati	2	1	1	2	1
7	Namangan viloyati	1	1	2	1	0
8	Samarqand viloyati	3	1	5	1	1
9	Surxondaryo viloyati	1	1	1	0	1
10	Sirdaryo viloyati	1	1	3	1	1
11	Toshkent viloyati	10	2	3	2	2
12	Farg'ona viloyati	5	1	4	2	0
13	Xorazm viloyati	5	0	1	0	1
14	Toshkent shahri	5	5	9	5	2
Jami	Respublika bo'yicha	65	25	40	23	11

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizning barcha hududlarida innovatsion infratuzilma elementlari, jumladan, kovorking markazlari, innovatsiya markazlari, inkubatsiya markazlari, akseleratsiya markazlari va texnoparklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur institutlar tadbirkorlik ekotizimining muhim tarkibiy qismlari sifatida startap loyihalarni shakllantirish, rivojlantirish va bozorga olib chiqish jarayonida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi funksiyalarni bajaradi.

Xususan, kovorking markazlari tadbirkorlar uchun qulay ish muhitini yaratadi, inkubatsiya markazlari startap loyihalarga mentorlik va amaliy ko'mak ko'rsatadi, innovatsiya markazlari yangi g'oyalar va ishlanmalarni shakllantirish uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi, akseleratsiya markazlari esa istiqbolli loyihalarning tez sur'atlarda rivojlanishi va investitsiyalarni jalb etishiga xizmat qiladi. Texnoparklar o'zining zamonaviy ilmiy-texnik bazasi va rivojlangan infratuzilmasi orqali mazkur jarayonlarning samaradorligini yanada oshiradi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, inkubatsiya markazlari innovatsion ekotizimning markaziy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Ular kovorking markazlari, innovatsiya markazlari, akseleratsiya markazlari va texnoparklar bilan uzviy hamkorlikda faoliyat yuritgan taqdirda startaplar hamda kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanishini samarali ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat biznes-inkubatorlari, odatda, ijtimoiy yo'naltirilgan va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritsa, xususiy biznes-inkubatorlar innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy samaradorlikka erishishga yo'naltiriladi. Axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan, xalqaro hamkorlik asosida tashkil etilgan hamda xususiy biznes-inkubatorlar ushbu ikki modelning afzalliklarini o'zida mujassamlashtiradi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yilgi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Universitetlar huzurida tashkil etilgan biznes-inkubatorlar esa mavjud ilmiy salohiyat va intellektual resurslarga tayangan holda faoliyat yuritadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning barcha hududlarida turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi biznes-inkubatorlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, mavjud ehtiyoj va imkoniyatlari hisobga olinayotganligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, biznes-inkubatorlar faoliyatini tashkil etishda ularning tashkiliy tuzilmasi va huquqiy shakllari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur subyektlar o'z faoliyatini turli yuridik shakllarda amalga oshirishi mumkin. Ularning ayrimlari davlat tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, boshqalari xususiy sektor yoki davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritadi. Shuning uchun biznes-inkubatorlarning tashkiliy-huquqiy shakllarini o'rganish ularning samarali faoliyat yuritish mexanizmlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Biznes-inkubatorlarning eng keng tarqalgan tashkiliy-huquqiy shakllari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

O'zbekistonda biznes inkubatorlarning tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi¹⁰ (2024 yil holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakllari	Biznes-inkubatorlar soni	Ulushi (%)
Oliy ta'lim muassasalari qoshidagi biznes-inkubatorlar	12	30,0
IT-parklar tarkibidagi biznes-inkubatorlar	9	22,5
Davlat tashkilotlari qoshidagi biznes-inkubatorlar	8	20,0
Xususiy biznes-inkubatorlar	7	17,5
Xalqaro tashkilotlar ko'magida tashkil etilgan biznes-inkubatorlar	4	10,0
Jami	40	100,0

3-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda jami 40 ta biznes-inkubator faoliyat yuritmoqda. Ularning eng katta ulushi, ya'ni 30,0 foizi oliy ta'lim muassasalari qoshida tashkil etilgan biznes-inkubatorlarga to'g'ri kelib, ularning soni 12 tani tashkil etadi. Mazkur holat oliy ta'lim tizimida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish, talabalar va yosh tadbirkorlarning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish imkoniyatlari kengayib borayotganidan dalolat beradi.

IT-parklar tarkibidagi biznes-inkubatorlar soni 9 tani tashkil etib, umumiy inkubatorlarning 22,5 foiziga tengdir. Bu ko'rsatkich mamlakatda axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot va innovatsion startaplarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi. Davlat tashkilotlari qoshida faoliyat yuritayotgan biznes-inkubatorlar soni 8 ta bo'lib, ularning ulushi 20,0 foizni tashkil etadi. Mazkur inkubatorlar asosan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan kichik biznes subyektlari va startap loyihalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xususiy biznes-inkubatorlar soni 7 taga teng bo'lib, umumiy tarkibning 17,5 foizini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich xususiy sektorning innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va inkubatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashdagi ishtiroki tobora ortib borayotganligini anglatadi. Xalqaro tashkilotlar ko'magida tashkil etilgan biznes-inkubatorlar soni 4 ta bo'lib, ularning ulushi 10,0 foizni tashkil etadi. Mazkur inkubatorlar xalqaro tajriba, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari hamda xorijiy moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonda turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi biznes-inkubatorlar faoliyatining izchil rivojlanib borayotganini hamda kichik biznes va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali institutsional mexanizmlari shakllanayotganini ko'rsatadi.

Biznes-inkubatorlarning tashkiliy-huquqiy shakllar bo'yicha taqsimlanishi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Biznes-inkubatorlar startap loyihalar va yosh tadbirkorlarning biznesni tashkil etish, rivojlantirish hamda bozorga olib chiqish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash orqali innovatsion ekotizimning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ularning tashkiliy-huquqiy shakllari boshqaruv tizimi, moliyalashtirish manbalari, faoliyat yo'nalishlari va ko'rsatiladigan xizmatlar xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Mazkur farqlar biznes-inkubatorlarning faoliyat samaradorligini oshirish, maqsadli auditoriyaga mos xizmatlarni shakllantirish hamda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, biznes-inkubatorlar o'zining tashkiliy-huquqiy shakli va faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, mijozlarga zarur bo'lgan keng ko'lamlı xizmatlarnı taqdim etadi. Xususan, ular ofis va ishlab chiqarish binolari, zamonaviy ofis jihozlari, buxgalteriya, konsalting, yuridik, auditorlik va marketing xizmatlari, xavfsiz hamda zamonaviy jihozlangan ish maydonlari, barqaror ijara shartlari, biznes faoliyatini boshlash va rivojlantirish bo'yicha amaliy ko'mak, kreditlash, o'qitish, maslahat berish, litsenziyalash, sug'urtalash, biznesni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda mahsulot va xizmatlarnı patentlash kabi professional xizmatlarnı taqdim etadi. Mazkur xizmatlar tadbirkorlik faoliyatining dastlabki bosqichlarida yuzaga keladigan muammolarnı bartaraf etish va innovatsion loyihalarnı muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari biznes-inkubatorlar faoliyatini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Xususan, biznes-inkubatorlar faoliyatini tartibga soluvchi alohida normativ-huquqiy hujjat yoki maxsus qonunni ishlab chiqish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grant dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali universitetlar huzurida biznes-inkubatsiya modelini rivojlantirish, innovatsion tadbirkorlik va biznes-inkubatsiyaga oid maxsus modullarnı oliy ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv dasturlariga kiritish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, biznes-inkubatorlarda startup loyihalarnı ekspertiza qilish, mentorlik va konsalting xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha malakali mutaxassislar bazasini shakllantirish, hududlarda, ayniqsa qishloq va chekka hududlarda biznes-inkubatorlar tarmog'ini kengaytirish hamda yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, biznes-inkubatorlar faoliyatini raqamlashtirish, virtual inkubatsiya platformalarini joriy etish va elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish ularning samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, IT-parklar faoliyatida ta'lim, ilm-fan va texnologik innovatsiyalarnı rivojlantirish bilan bir qatorda biznes-inkubatorlarnı qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat biznes-inkubatorlari ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsa, xususiy biznes-inkubatorlar bozor talablariga moslashuvchanligi va innovatsion yondashuvlarnı keng qo'llashi bilan ajralib turadi. Xalqaro tashkilotlar ko'magida tashkil etilgan biznes-inkubatorlar esa global hamkorlikni rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalarnı joriy etish va xalqaro investitsiyalarnı jalb qilish orqali milliy inkubatsiya tizimining rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda biznes-inkubatorlar davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar ishtirokida turli tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilib, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim institutlaridan biriga aylanib bormoqda. Ularning har biri o'zining tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv mexanizmi va faoliyat yo'nalishlariga ega bo'lib, mamlakat innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan biznes-inkubatorlarning institutsional salohiyatini mustahkamlash, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va ularning faoliyat samaradorligini oshirish O'zbekistonning innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohasiga innovatsiyalarnı joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3723561>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi "Toshkent shahrida innovatsion texnopark tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4059-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4102205>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktabrdagi "Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 606-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6240100>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi "Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4168-son Qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4195426>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi "Intellectual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4965-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5248263>.



7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-221-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5987120>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 14-fevral kuni Ko'ksaroy qarorgohida mamlakat yoshlari bilan o'tkazgan ochiq muloqoti materiallari.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3682-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3711923>.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil yakunlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari.
11. Narzullayev, Sh. E. Talaba yoshlarning g'oyalarini tijoratlashtirishda biznes-inkubator faolligini oshirish yo'llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. – 2024. – № 3 (may-iyun). – B. 104–113.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>